NOGIRONLIGI BÖLGAN ŞAXSLARGA IJTIMOIY YORDAM KÖRSATIŞDA DAVLAT TAŞKILOTLARI, MAHALLA VA IJTIMOIY XODIMLAR HAMKORLIGINI TAKOMILLAŞTIRIŞ

Erkinjonova Nodira Mamatqul qizi
Mirzo Uluğbek nomidagi Özbekiston
Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy iş kafedrasi öqituvçisi
Email: n.erkinjonova953@gmail.com
Tel.: +998 97 759-09-19
https://doi.org/10.5281/zenodo.24015137

Annotatsiya: Maqolada Özbekistonda nogironligi bölgan şaxslarga ijtimoiy yordam körsatiş samaradorligi xizmatlar hajmigina emas, balki davlat taşkilotlari, mahalla va ijtimoiy xodimlar örtasidagi hamkorlik sifati bilan belgilanişi asoslanadi. 2026-yil 23-iyuldagi “Ijtimoiy iş töğrisida”gi Qonun, “Nogironligi bölgan şaxslarning huquqlari töğrisida”gi Qonun va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini tartibga soluvçi hujjatlar normativ-huquqiy, tizimli va qiyosiy usullarda tahlil qilingan. Buyuk Britaniya, Şvetsiya, Germaniya va Yaponiya tajribasi asosida idoralararo muvofiqlaştirişning milliy şaroitga mos va mos bölmagan jihatlari ajratilgan. Muallif ehtiyojni aniqlaşdan natijani baholaşgaça bölgan yetti bosqiçli “muvofiqlaştirilgan ijtimoiy yordam” modelini işlab çiqqan; unda ijtimoiy xodimga yetakçi muvofiqlaştiruvçi, mahallaga esa aniqlaş va yönaltiriş vazifasi yuklanadi. Vazifalar taqsimoti, ehtiyojlarni yagona vosita bilan baholaş, muddatli elektron yöllanma va rozilikka asoslangan axborot almaşinuviga doir törtta ustuvor taklif mas’ul taşkilot, huquqiy mexanizm, olti oylik sinov tartibi va samaradorlik körsatkiçlari bilan asoslangan.

Kalit sözlar: nogironligi bölgan şaxslar; ijtimoiy iş; idoralararo hamkorlik; mahalla; ijtimoiy xodim; “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi; yakka tartibdagi ijtimoiy xizmat rejasi; huquqlarga asoslangan yondaşuv.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ, МАХАЛЛИ И СОЦИАЛЬНЫХ РАБОТНИКОВ ПРИ ОКАЗАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ПОМОЩИ ЛИЦАМ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ

Аннотация: В статье обосновывается, что эффективность социальной помощи лицам с инвалидностью в Узбекистане определяется не только объёмом услуг, но и качеством взаимодействия государственных организаций, махалли и социальных работников. Проведён нормативно-правовой, системный и сравнительный анализ Закона «О социальной работе» от 23 июля 2026 года, Закона «О правах лиц с инвалидностью» и актов, регулирующих деятельность центров социальных услуг «Инсон». На основе опыта Великобритании, Швеции, Германии и Японии выделены элементы межведомственной координации, применимые и

неприменимые в национальных условиях. Автором разработана семиэтапная модель «скоординированной социальной помощи», охватывающая путь от выявления потребности до оценки результата, в которой социальный работник выступает ведущим координатором, а махалля выполняет функции выявления и направления. Обоснованы четыре приоритетных предложения: уточнение распределения функций, единый инструмент оценки потребностей, электронное направление с установленными сроками и обмен информацией на основе согласия, с указанием ответственных органов, правового механизма, шестимесячного пилотного этапа и показателей эффективности.

Ключевые слова: лица с инвалидностью; социальная работа; межведомственное взаимодействие; махалля; социальный работник; центр социальных услуг «Инсон»; индивидуальный план социального обслуживания; правозащитный подход.

IMPROVING COLLABORATION BETWEEN STATE ORGANIZATIONS, THE MAHALLA AND SOCIAL WORKERS IN PROVIDING SOCIAL ASSISTANCE TO PERSONS WITH DISABILITIES

Abstract: The article argues that the effectiveness of social assistance to persons with disabilities in Uzbekistan depends not only on the volume of services but also on the quality of collaboration between state organizations, the mahalla and social workers. It analyses the Law "On Social Work" of 23 July 2026, the Law "On the Rights of Persons with Disabilities" and the acts governing "Inson" social service centres. Drawing on British, Swedish, German and Japanese experience, it separates transferable and non-transferable elements of interagency coordination. The author develops a seven-stage "coordinated social assistance" model, from identifying needs to evaluating outcomes, in which the social worker acts as lead coordinator and the mahalla handles identification and referral. Four priority proposals on task allocation, a single needs assessment tool, time-bound electronic referral and consent-based information exchange are substantiated with responsible bodies, legal mechanisms, a six-month pilot and performance indicators.

Key words: persons with disabilities; social work; interagency collaboration; mahalla; social worker; "Inson" social service centre; individual social service plan; human rights-based approach.

Kiriş.

Sönggi uç yilda Özbekistonning ijtimoiy himoya tizimi taşkiliy jihatdan deyarli qaytadan qurildi. 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmon bilan Prezident huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi taşkil etildi, tibbiy-ijtimoiy ekspertiza, reabilitatsiya va protezlaş muassasalari unga ötkazildi, tuman (şahar) darajasida esa "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va ularning tarkibida ijtimoiy xodimlar guruhlari tuzildi [1]. Şu yilning 28-sentabrida qabul qilingan PQ-319-son qaror yangi tizimni 28 ta tuman va şaharda sinovdan ötkazişni boşlab berdi hamda ijtimoiy himoyani bevosita mahalla darajasida taşkil etiş vazifasini qöydi [2]. Nihoyat, 2026-yil 23-iyulda "Ijtimoiy iş töğrisida"gi ÖRQ-1159-son Qonun qabul qilinib, ijtimoiy iş birinçi marta mustaqil kasbiy faoliyat sifatida qonun darajasida mustahkamlandi [3].

Islohotlar qançalik dolzarbligini rasmiy raqamlar yaqqol körsatadi. Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasining 2026-yil 30-iyunda e'lon qilingan ma'lumotiga köra, 2025-yil yakunida respublikada 1 063,1 ming nafar nogironligi bölgan şaxs hisobda turgan, ulardan 170,4 ming nafari bolalardir [4]. 2021-yilda bu körsatkiç 797,3 ming nafar bölgan, ya'ni tört yilda hisobdagilar soni 265,8 ming nafarga yoki 33,3 foizga köpaygan, faqat 2025-yilning özida 116,4 ming kişi birinçi marta nogironligi bölgan şaxs deb topilgan. Kattalar orasida II guruh nogironligi bölganlar (712,6 ming nafar) mutlaq köpçilikni taşkil etadi, demak, yordamga muhtojlarning asosiy qismi uzoq muddatli va bir neça sohani qamrab oluvçi qöllab-quvvatlaşga ehtiyoj sezadi. Hududiy farq ham katta: Qaşqadaryo (113,4 ming) va Samarqand (111,1 ming) viloyatlarida hisobdagilar soni Sirdaryo viloyatidagiga (39,7 ming) nisbatan qariyb uç barobar köp [4]. Bu raqamlar ma'muriy hisobga asoslanadi: ular rasman nogironligi bölgan deb topilganlarni aks ettiradi, funksional çeklovga ega bölsa-da, bunday maqomni olmagan aholini esa qamrab olmaydi.

Bunday ehtiyojni bitta idora qondira olmasligi ayon. Harakatlanişida nuqsoni bölgan kişiga bir vaqtning özida reabilitatsiya, texnik vosita, uy-joyni moslaştiriş, kasbga tayyorlaş va iş örni, ba'zan psixologik va huquqiy yordam kerak böladi, bu xizmatlar esa turli vazirliklar, hokimlik, "Inson" markazi va mahalla vakolatiga tegişli. Bizningça, asosiy muammo xizmatning yöqligida emas, balki mavjud xizmatlarning bir-biriga ulanmaganligida: amaldagi hujjatlar har bir subyektning vakolatini alohida belgilaydi, ammo aniq fuqaro işi böyiça ularni boğlovçi tartibni belgilamaydi (bu holat maqolaning normativ tahlil qismida batafsil körsatiladi).

Misol. Quyidagi vaziyat biror real şaxs, taşkilot yoki voqeaga tegişli emas, u muammoni körgazmali ifodalaş uçun muallif tomonidan umumlaştirib tuzilgan. Çekka tumanlardan birida yaşovçi, orttirilgan şikast oqibatida nogironlik aravaçasiga boğlanib qolgan 30 yoşli erkak (şartli ravişda "A.") kasbiy qayta tayyorlovdan ötib işlaşni istaydi. Buning uçun unga yangi aravaça, uy kiriş qismida pandus, kasbga öqitiş va moslaştirilgan iş örni zarur. Mahalla raisi uning ahvolidan xabardor, ijtimoiy xodim ham uyida bir neça bor bölgan. Biroq har bir masala böyiça A. turli idoralarga alohida murojaat qilişi va deyarli bir xil hujjatlarni qayta topşirişi kerak. Bir yildan keyin ham u uydan mustaqil çiqa olmaydi. Idoralarning har biri "öz qismini" bajarişga tayyor, ammo yakuniy natija uçun heç kim javob bermaydi. Maqolaning markaziy savoli şundan kelib çiqadi. Bir neça taşkilot örtasida taqsimlangan mas'uliyatni kim, qaysi tartibda va qanday vositalar bilan yagona natijaga birlaştirişi kerak?

Milliy adabiyotlarda nogironlik masalasi asosan huquqiy kafolatlar, inklyuziv ta'lim, bandlik va ijtimoiy himoya tizimining tarixiy rivoji nuqtayi nazaridan örganilgan [5; 6; 7]. Davlat taşkilotlari, mahalla va ijtimoiy xodim örtasidagi hamkorlikning taşkiliy-huquqiy mexanizmi esa körib çiqilgan milliy işlarda alohida tahlil qilinmagan, ularning barçasi "Ijtimoiy iş töğrisida"gi Qonun qabul qilinişidan oldin yoki u bilan bir vaqtda tayyorlangan.

Maqsad – Özbekistonda nogironligi bölgan şaxslarga ijtimoiy yordam körsatişda davlat taşkilotlari, mahalla va ijtimoiy xodimlar örtasidagi hamkorlikning taşkiliy-huquqiy asoslarini örganiş, mavjud muammolarni aniqlaş va uni takomillaştiriş böyiça ilmiy-amaliy takliflar işlab çiqiş.

Vazifalar: 1) huquqlarga asoslangan model va ijtimoiy iş nazariyasi asosida idoralararo hamkorlikni baholaş mezonlarini aniqlaş; **2)** davlat organlari, "Inson" markazlari, mahalla va ijtimoiy xodimlar vakolatlarini qiyoslab, ularning huquqiy maqomidagi farqlar va normativ böşliqlarni körsatiş; **3**) vazifalar taqsimoti, axborot almaşinuvi va mas'uliyat bilan boğliq tizimli muammolarni rasmiy

manbalar asosida tahlil qiliş; **4)** Buyuk Britaniya, Şvetsiya, Germaniya va Yaponiya tajribasidan moslaştiriş mumkin bölgan va bölmagan elementlarni ajratiş; **5)** ehtiyojni aniqlaşdan natijani baholaşgaça bölgan mualliflik hamkorlik modelini işlab çiqiş; **6)** mas'ul taşkiloti, huquqiy mexanizmi, sinov tartibi va samaradorlik körsatkiçlari belgilangan törtta ustuvor taklif tayyorlaş.

Obyekt – Özbekistonda nogironligi bölgan şaxslarga ijtimoiy yordam körsatiş jarayoni. Predmet – uşbu jarayonda davlat taşkilotlari, mahalla va ijtimoiy xodimlarning hamkorlik munosabatlari, ularning taşkiliy-huquqiy mexanizmlari va samaradorligi.

Faraz. Iştirokçi taşkilotlar faoliyatining aniq muvofiqlaştirilişi, vazifalar taqsimoti va ijtimoiy xodimning markaziy taşkiliy roli, şuningdek, mas'uliyat va axborot almaşinuvi tartibining takomillaştirilişi xizmatlarning manzilliligi, uzluksizligi va natijadorligini oşiradi.

Ilmiy yangilik. Maqolada quyidagi natijalar ilgari suriladi; ularning har biri amaldagi normativ hujjatlar va xorijiy tajriba bilan qiyoslab asoslanadi.

Birinçidan, iştirokçilarning vazifaviy boğliqligini ifodalovçi mexanizm asoslangan: mahalla – erta aniqlaş va yönaltiriş, ijtimoiy xodim – baholaş va muvofiqlaştiriş, sohaviy davlat organlari – xizmatni ta'minlaş, Agentlik – standart, axborot tizimi va nazorat. Qonun bu vakolatlarni alohida sanaydi, ammo ularni bitta jarayonning ketma-ket böğinlari sifatida boğlamaydi.

Ikkinçidan, yetti bosqiçli hamkorlik algoritmi işlab çiqilib, unga ehtiyoj murakkabligiga qarab integratsiya darajasini tanlaş qoidasi kiritilgan. W. Leutzning integratsiya darajalari Qonundagi birlamçi, ixtisoslaşgan va yuqori ixtisoslaşgan xizmat darajalari bilan boğlangan.

Uçinçidan, "birinçi murojaat tamoyili" va muddatli elektron yöllanmaga asoslangan xizmatlar uzluksizligi modeli Qonunning 10-moddasiga köra Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaşi lozim bölgan hamkorlik reglamentining mazmuniy loyihasi sifatida taklif etilgan.

Törtinçidan, vakolatlar matritsasi orqali har bir tipik ehtiyoj böyiça yetakçi muvofiqlaştiruvçi, ijroçi va xabardor qilinuvçi subyektni belgilaş hamda ularning mas'uliyatini muddat va natija körsatkiçlari bilan ölçaş tartibi asoslangan.

Beşinçidan, şaxsning roziligi, mustaqil tanlovi va qöllab-quvvatlangan qaror qabul qilişini rejalaştiriş va baholaşning majburiy elementiga aylantiruvçi yondaşuv takomillaştirilgan.

Amaliy ahamiyati. Natijalardan Agentlik tomonidan hamkorlik reglamenti va 2027-yil 1-yanvardan kuçga kiradigan xizmat standartlarini tayyorlaşda, ijtimoiy xodimlarni sertifikatlaşda hamda "Nogironligi bölgan şaxslar bilan ijtimoiy iş" fanini öqitişda foydalaniş mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Nogironlik modellari va huquqlarga asoslangan yondaşuv. Maqolaning asosiy milliy nazariy manbasi bölgan **N.M. Latipova**, **A.A. Abduxalilov** va **Q.N. Qayumov**ning öquv qöllanmasida nogironlikni tuşunişning paternalistik (tibbiy, reabilitatsion), ijtimoiy va fuqarolik huquqlari modellari tizimli tahlil qilingan. Mualliflar tibbiy modelda nogironligi bölgan şaxslar ijtimoiy siyosatning subyekti emas, obyekti sifatida qaralişini va asosiy e'tibor kompensatsiya tölovlariga qaratilişini ta'kidlaydi [5, 36-b.]. Ijtimoiy model esa uçta tösiqni ajratadi: salbiy munosabat va stereotiplar, "hayot imkoniyatlarini" çeklovçi institutsional tösiqlar hamda me'moriy va transport tösiqlari [5, 40-b.]. Maqolada körilayotgan muammo ikkinçi guruhga taalluqli: idoralar örtasidagi uziliş ham nogironligi bölgan şaxs uçun pandussiz zinapoyadek real tösiqdir.

M. Oliver ijtimoiy modelning öttiz yillik tarixini sarhisob qilib, uni mukammal nazariya emas, balki insonlar hayotini özgartirişga xizmat qiluvçi amaliy vosita sifatida köriş kerakligini va bu vosita siyosat hamda xizmatlar amaliyotida yetarli qöllanmaganini qayd etadi [8]. **A. Lawson** va **A.E. Beckett** ijtimoiy va huquqlarga asoslangan modellarni bir-birini töldiruvçi deb hisoblaydi: birinçisi nogironlik qanday paydo bölişini tuşuntiradi, ikkinçisi davlatning aniq majburiyatlari va siyosat uçun me'yoriy asosni beradi [9]. Fikrimizça, bu tezis Özbekiston uçun ayniqsa muhim: qonunçilik nogironlikni ijtimoiy tösiqlar bilan boğlab ta'riflaşga ötgan, xizmatlar amaliyoti esa hamon köp jihatdan tölov va imtiyozga yönaltirilgan.

Huquqlarga asoslangan yondaşuvning me'yoriy tayançi BMTning Nogironlar huquqlari töğrisidagi Konvensiyasidir [10]. Mavzu uçun uning 4-moddasi 3-bandi (nogironligi bölgan şaxslar va ularning taşkilotlari bilan yaqin maslahatlaşuv), 19-moddasi (mustaqil hayot), 22-moddasi (şaxsiy hayot daxlsizligi), 26-moddasi (individual ehtiyoj va imkoniyatlarni köp tarmoqli baholaşga asoslangan, yaşaş joyiga yaqin reabilitatsiya) va 31-moddasi (statistika) bevosita ahamiyatli. Konvensiya qömitasining 5-son Umumiy şarhida mustaqil hayot şaxsning öz hayoti ustidan tanlov va nazoratga ega bölişi, individual qöllab-quvvatlaş xizmatlari esa uning özi bilan birga loyihalaştirilişi lozimligi ta'kidlanadi [11]. Özbekiston Konvensiyani 2021-yil 7-iyundagi ÖRQ-695-son Qonun bilan ratifikatsiya qilgan, biroq 12-modda böyiça muomala layoqatini çeklaş va örinbosar qaror qabul qiliş mexanizmlarini kafolatlar bilan saqlab qolişni izohlovçi bayonot bilan [12]. Bu ijtimoiy xodim amaliyoti uçun çegara belgilaydi: milliy huquq doirasida ham imkon qadar qöllab-quvvatlangan qaror qabul qilişga ustunlik beriş kasbiy majburiyat bölişi kerak.

Idoralararo hamkorlik nazariyasi. L. Bronsteyn fanlararo hamkorlikni beşta tarkibiy qism orqali tavsiflaydi: özaro boğliqlik, yangi kasbiy faoliyat turlarining paydo bölişi, moslaşuvçanlik, maqsadlarga jamoaviy egalik va jarayon ustida birgalikda mulohaza yuritiş; hamkorlikka kasbiy rol, tuzilmaviy şart-şaroitlar, şaxsiy xususiyatlar va oldingi hamkorlik tajribasi ta'sir qiladi [13]. **W. Leutz** esa integratsiyaning uçta darajasini ajratadi: boğlaş (linkage), muvofiqlaştiriş (coordination) va töliq integratsiya. Uning "qonunlari"dan ikkitasi biz uçun muhim: barça xizmatlarni barça odamlar uçun integratsiya qilib bölmaydi, faqat ayrim odamlar uçun barça xizmatlarni yoki barça odamlar uçun ayrim xizmatlarni integratsiya qiliş mumkin; bir tomonning integratsiyasi boşqa tomon uçun parçalanişga aylanişi ham mumkin [14]. Demak, har bir şaxs uçun köp tarmoqli guruh tuziş na mumkin, na zarur; integratsiya darajasi ehtiyoj murakkabligiga mos tanlanişi kerak.

Milliy tadqiqotlar. N. Latipova va hammualliflarining fikriça, nogironligi bölgan şaxslar bilan ijtimoiy iş yakka tartibdagi reabilitatsiya dasturi asosida olib boriladi va uyda, yarim statsionar, statsionar, şoşilinç hamda maslahat şaklidagi xizmatlarni qamrab oladi [5, 27-b.]; zamonaviy ijtimoiy iş mustaqil hayot uçun şaroit yaratişga yönaltirilişi, ijtimoiy xodimning mahorati ham şu mezon bilan baholanişi lozim [5, 7-b.]. Qöllanmada nogironligi bölgan bolani tarbiyalayotgan oilalar misolida "vakolatlarni normativ jihatdan belgilangan çegaralaş asosida konstruktiv, uzoq muddatli idoralararo va tarmoqlararo hamkorlik" zarurligi qayd etilgan [5, 109-b.], biroq bu ğoya mexanizm darajasigaça işlab çiqilmagan, zero qöllanma öquv maqsadida va yangi Qonundan oldin naşr etilgan.

S. Jaloldinov 1991–2026-yillardagi rivojni beş bosqiçga ajratib, tizim tibbiy-kompensatsion yondaşuvdan huquqlarga asoslangan modelga ötayotganini, ammo bandlik, qulay muhit, nogironlikni baholaş va mahalliy xizmatlar sifati böyiça muammolar saqlanayotganini körsatadi [7].

M. Abduvaliyeva inklyuziv siyosatni institutsional islohotlar va inklyuziv ta'lim bilan boğlaydi [6]. **D. Komilov** mahallani ijtimoiy siyosat va manzilli yordamning tayanç böğini sifatida tahlil qiladi, biroq asosan kambağallik va infratuzilma masalalariga töxtaladi [15]. **O.M. Xakimov** va **A. Töraqulova** nogironligi bölgan bolalarga ijtimoiy xizmat körsatişda muloqot va iştirokni ta'minlaşga oid tavsiyalar beradi [16].

Qiyoslaş şuni körsatadiki, milliy işlarda huquqiy-tarixiy tavsif va alohida soha doirasidagi tavsiyalar ustun: mahalla haqidagi körib çiqilgan işlarda nogironligi bölgan şaxslar alohida guruh sifatida tahlil qilinmagan, nogironlik böyiça işlarda esa mahalla va ijtimoiy xodim örtasidagi vazifaviy aloqa tahlil qilinmaydi. Xalqaro taşkilotlar hujjatlari ham bu yönalişdagi ehtiyojni tasdiqlaydi: Jahon banki 2024-yilda ma'qullagan "INSON" loyihasi 50 dan ortiq jamoaga asoslangan hududiy xizmat markazlari bilan birga ijtimoiy keys-menejment tizimini yaratişni közda tutadi [17]. Demak, körib çiqilgan milliy manbalarda yangi qonunçilikka mos, nazariy asoslangan hamkorlik modeli taklif etilmagan, bu esa maqolaning amaliy vazifasini belgilaydi.

Metodologiya. Normativ-huquqiy tahlil doirasida hujjatlarning Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasidagi (Lex.uz) 2026-yil 4-noyabr holatidagi amaldagi tahriri örganildi. Tizimli tahlil yordamida yordam körsatiş jarayoni bosqiçlarga ajratilib, har bir bosqiçda qaysi subyekt qanday huquqiy asosda harakat qilişi xaritalaştirildi. Qiyosiy tahlil uçun mamlakatlar ijtimoiy reabilitatsiyaning liberal, sotsial-demokratik va korporativ modellari tipologiyasi asosida tanlandi [5, 82-b.]: Buyuk Britaniya (Angliya), Şvetsiya va Germaniya; Yaponiya esa mahallaga yaqin jamoaviy institutlar mavjudligi sababli qöşildi. Kontent-tahlil rasmiy hujjatlar, statistik press-reliz va xalqaro taşkilotlar materiallariga qöllanildi.

Tadqiqot çeklovlari. Maqola fan doirasidagi tahliliy iş bölib, unda sotsiologik sörov va ekspert intervyulari ötkazilmagan: muammolar amaldagi normativ hujjatlar, rasmiy statistika va xalqaro tajribani qiyoslaş orqali aniqlangan, takliflar esa xorijiy amaliyotga tayangan holda işlab çiqilgan. Muallif örgangan oçiq rasmiy manbalarda ijtimoiy xodimlar soni, iş yuklamasi va idoralararo yöllanmalar böyiça umumlaştirilgan statistika keltirilmagan, şu bois takliflardagi samaradorlik körsatkiçlari amaldagi holatni emas, sinov davrida ölçanadigan maqsadli qiymatlarni ifodalaydi.

Muhokama: Normativ-huquqiy asoslar tahlili.

Nogironligi bölgan şaxslarga ijtimoiy yordamning huquqiy asosi köp bosqiçli: xalqaro şartnoma, ikkita tayanç qonun, Prezident hujjatlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari.

1. Nogironlar huquqlari töğrisidagi Konvensiya va ÖRQ-695-son Qonun. Ratifikatsiya natijasida xizmatlarni köp tarmoqli baholaş, yaşaş joyiga yaqinlik, şaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi va nogironligi bölgan şaxslarning qaror qabul qilişdagi iştiroki davlat majburiyatiga aylandi [12; 10]. 12-modda böyiça izohlovçi bayonot esa qöllab-quvvatlangan qaror qabul qiliş amaliyotini rivojlantiriş masalasini oçiq qoldiradi.

2. "Nogironligi bölgan şaxslarning huquqlari töğrisida"gi 2020-yil

15-oktabrdagi ÖRQ-641-son Qonun. 3-moddada nogironligi bölgan şaxs jamiyat hayotida boşqalar bilan bir qatorda töliq va samarali iştirok etiş uçun şart-şaroit yaratilişiga muhtoj, barqaror jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bölgan şaxs sifatida ta'riflanadi [18; 5, 8-b.]. 4–5-moddalarda mustaqillik va tanlaş erkinligini hurmat qiliş, 6 va 18-moddalarda kamsitişni taqiqlaş, 19-

moddada şaxsiy hayot daxlsizligi va soğliq haqidagi ma'lumotlar maxfiyligi mustahkamlangan. Hamkorlik uçun uçta norma muhim. 14-modda mahalliy davlat hokimiyati organlariga reabilitatsiya va ijtimoiy himoya böyiça hududiy dasturlarni işlab çiqiş va eng kam iş örinlari sonini belgilaş vakolatini beradi. 15-modda Vazirlar Mahkamasi huzurida, tarkibiga nogironligi bölgan şaxslarning jamoat birlaşmalari ham kiradigan, yarim yilda kamida bir marta yiğiladigan Idoralararo kengaş tuzilişini nazarda tutadi. 16-modda mahalla va nodavlat taşkilotlarga huquqlarni ta'minlaşga kömaklaşiş va jamoatçilik nazorati vazifasini yuklaydi [18]. 33-moddadagi yakka tartibdagi reabilitatsiya dasturi esa nogironlik töğrisida qaror qabul qiliş bilan birga tuziladi [5, 56-b.]. Bizningça, bu Qonun muvofiqlaştirişni respublika darajasida yaxşi tartibga soladi, ammo aniq fuqaro işi darajasidagi muvofiqlaştiriş uning predmetiga kirmaydi.

3. "Ijtimoiy iş töğrisida"gi 2026-yil 23-iyuldagi ÖRQ-1159-son Qonun. Bu Qonun jarayon iştirokçilari va ularning munosabatlarini birinçi marta tizimli tartibga soladi [3].

Idoralararo hamkorlik (10-modda). Davlat organlari, mahalliy ijro etuvçi hokimiyat organlari, fuqarolarning özini özi boşqariş organlari, nodavlat taşkilotlar va boşqa subyektlar hamkorligi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan reglament asosida amalga oşiriladi. Reglamentda iştirokçilar va xizmatlar, hamkorlik tartibi va şakllari, axborot almaşinuvining mazmuni va şartlari (şu jumladan elektron şaklda), çora-tadbirlarni amalga oşiriş mexanizmi hamda nazorat va natijalarni baholaş tartibi belgilanişi şart. 47-moddada bir qator qonunosti hujjatlari uçun muddat belgilangan bölsa-da (masalan, malaka sertifikati tartibi uçun uç oy), bu reglament uçun muddat yöq. Demak, uning mazmunini hozirdanoq ilmiy asoslaş mumkin va lozim.

Vakolatlar (13–17-moddalar). Agentlik maxsus vakolatli davlat organi sifatida siyosatni işlab çiqadi, standartlarni belgilaydi, muhtojlar reyestrini yuritadi va xizmatlar samaradorligini baholaydi; respublika va mahalliy ijro etuvçi organlar muhtojlarni aniqlaş va hududiy dasturlarda iştirok etadi. Fuqarolarning özini özi boşqariş organlari muhtojlarni aniqlaydi va hisobini yuritadi, murojaatlarni körib çiqadi, xizmat körsatuvçilar bilan hamkorlikda maslahat va psixologik yordamni taşkil etadi, jamoatçilik nazoratini olib boradi, ehtiyoj va natijalarni baholaşda iştirok etadi (16-modda); nodavlat taşkilotlar ijtimoiy buyurtma, subsidiya va grantlar asosida xizmat körsatadi (17-modda).

Xizmat darajalari va asoslari (19, 23–26-moddalar). Birlamçi daraja mahalla darajasida körsatiladigan, oğir vaziyatni erta aniqlaşga qaratilgan qisqa muddatli harakatlar, ixtisoslaşgan daraja mutaxassislarning kelişilgan çoralari, yuqori ixtisoslaşgan daraja esa muassasada yoki mobil guruh tomonidan uyda doimiy tibbiy-ijtimoiy xizmat sifatida belgilangan (19-modda). Muhtoj deb topuvçi subyektlar qatorida "Inson" markazlari va ijro etuvçi organlar bilan birga fuqarolarning özini özi boşqariş organlari ham körsatilgan, mezonlarni Vazirlar Mahkamasi belgilaydi (24-modda). Xizmat ariza va rozilik asosida, keçiktirib bölmaydigan hollarda esa rozisiz körsatiladi (25-modda). 26-modda foydalanuvçiga ma'lumot oliş, şaxsiy ma'lumotlar himoyasi, kamsitilmaslik, xizmatlarni rejalaştirişda iştirok etiş va ulardan voz keçiş huquqlarini kafolatlaydi.

Standartlar va nazorat (22, 30, 32–33-moddalar). Xizmat körsatuvçilar reyestriga oid 22-modda va standartlarga oid 30-modda 2027-yil 1-yanvardan kuçga kiradi (48-modda), şuning uçun maqola tayyorlanayotgan sanada ular amaldagi norma emas, yaqin istiqboldagi huquqiy asos sifatida qaraladi. Agentlik huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya, jumladan, nogironligi bölgan şaxslarga körsatilayotgan xizmatlarni monitoring qiladi va intizomiy javobgarlik yuzasidan taklif kiritiş huquqiga ega.

Ijtimoiy xodim (34–37, 40-moddalar). Ijtimoiy xodim xizmatlarni standartlarga muvofiq taşkil etadi, zarur hollarda işni vakolatli organlarga yönaltiradi (34-modda); ehtiyojni aniqlaş, foydalanuvçi mustaqilligini qöllab-quvvatlaş, ma'lumotlarni himoya qiliş, boşqa taşkilotlar bilan hamkorlik qiliş va köp tarmoqli (multidissiplinar) guruh tarkibida iştirok etiş uning majburiyatidir (35-modda). Maqom malaka sertifikati bilan belgilanadi (37-modda), faoliyatda superviziya nazarda tutilgan (40-modda).

4. Prezident hujjatlari. PF-82-son Farmon "Inson" markazlaridagi ijtimoiy xodimlar guruhlariga xonadonlarni örganiş, oila ijtimoiy pasportini yuritiş, keys-menejment usulida murojaatlarni qabul qilib vakolatli organlarga yönaltiriş va xavf guruhidagi oilalarni kuzatib boriş vazifalarini yuklagan [1]. PQ-319-son qaror yakka tartibdagi ijtimoiy xizmat rejalarini işlab çiqiş, norasmiy qöllab-quvvatlaş tarmoqlarini jalb etiş, mahalla binosida ijtimoiy xodim uçun xona ajratiş, "Ijtimoiy himoya yagona milliy axborot tizimi"da elektron keys-menejment modulini yaratiş va nogironlikni bosqiçma-bosqiç funksional baholaş asosida belgilaşga ötişni nazarda tutgan [2]. 2026-yil 24-iyundagi PF-116-son Farmon ijtimoiy xodimni "mahalla yettiligi" tarkibiga kiritib, unga ehtiyoj va resurslarni baholaş asosida yakka tartibdagi xizmat rejalarini tayyorlaşni yuklagan, mahalla raisiga mablağlarni nogironligi bölgan şaxslar va boşqa ehtiyojmandlarga manzilli yönaltiriş majburiyatini bergan hamda 2026-yil 1-noyabrgaça "Raqamli mahalla" platformasini işga tuşirişni belgilagan [19].

5. Vazirlar Mahkamasi qarorlari. 2023-yil 14-oktabrdagi 539-son qaror "Inson" markazlari xizmatlari röyxatini, ularning hokimliklar, hududiy organlar va mahalla bilan hamkorlik yönalişlarini hamda axborot tizimiga integratsiya qilinadigan ma'lumotlar bazalarini tasdiqlagan [20]. Eng muhim norma 7-bandda: ijtimoiy xodimlar guruhlari işlab çiqqan yakka tartibdagi ijtimoiy xizmat rejalari davlat organlari, hokimliklar, mahalla va boşqa taşkilotlar uçun öz vakolatlari doirasida majburiy, markaz va ijtimoiy xodim sörovlari esa ön kun içida körib çiqiladi. Mahalladagi ijtimoiy xodimni baholaş mezonlarining kamida 20 foizi mahalla raisi taqdimnomasiga asoslanadi (5-band). 2026-yil 4-sentabrdagi 461-son qaror esa ijtimoiy xodim lavozimlarini toifalarga ajratib, Agentlik huzuridagi öquv markazida kamida 36 akademik soatlik tayyorgarlik va test sinovidan keyin beş yilga beriladigan malaka sertifikatini joriy etgan, uni 2027-yil 1-apreldan barça hududlarda qöllaşni belgilagan [21].

Huquqiy tahlil natijalari. Fikrimça, tahlildan uçta xulosa kelib çiqadi. **Birinçidan**, iştirokçilarning huquqiy maqomi bir xil emas. Agentlik, vazirliklar va hokimliklar ma'muriy vakolatli davlat organlari; "Inson" markazlari Agentlik tizimidagi tuman (şahar) böğini, mahalla davlat hokimiyati organi emas, balki fuqarolarning özini özi boşqariş organi, ijtimoiy xodim esa ma'muriy qaror çiqaruvçi mansabdor şaxs emas, malaka sertifikatiga ega mutaxassis. Şu bois ijtimoiy xodimning muvofiqlaştiruvçi roli uning şaxsiy vakolatiga emas, rejaning huquqiy majburiyligiga (539-son qaror, 7-band) tayanişi kerak. **Ikkinçidan**, normalar "nima qilinadi" degan savolga javob beradi, lekin "qaçon, kim boşlaydi va natija uçun kim javob beradi" degan savollar oçiq. **Uçinçidan**, 2026-yildagi hujjatlar modelni qonundan taşqarida emas, uning içida, eng avvalo 10-moddadagi reglament va 30-moddadagi standartlar orqali joriy etiş imkonini berdi.

Muammoning Özbekistondagi holati.

Normativ hujjatlar va rasmiy ma'lumotlarni qiyoslaş idoralararo hamkorlikdagi yettita tizimli muammoni körsatadi. Quyida har bir muammo aniq hujjat normasi bilan asoslab berilgan.

Birinçi muammo – parallel rejalar. Bir şaxsga nisbatan yakka tartibdagi reabilitatsiya dasturi (ÖRQ-641, 33-modda), “Inson” markazining ijtimoiy xizmat rejasi (PQ-319, 539-son qaror) va mahallada tayyorlanadigan reja (PF-116) tuzilişi mumkin, ammo ularning nisbati va qaysi biri ustuvorligi belgilanmagan. Leutzning “sening integratsiyang – mening parçalanişim” degan kuzatuvi aynan şunday holatni tasvirlaydi [14].

Ikkinçi muammo – yuqorida bor, quyida yöq muvofiqlaştiriş. Respublika darajasida idoralararo kengaş bor, lekin tumanda aniq iş böyiça vakolat nizosi çiqsa, uni hal qiliş tartibi va yetakçi taşkilotni belgilaş qoidasi yöq.

Uçinçi muammo – javob muddati bor, natija muddati yöq. Sörovni körib çiqiş uçun ön kunlik muddat belgilangan, ammo xizmat qaçon boşlanişi va keçikkan masala qaysi darajaga kötarilişi tartibga solinmagan; taqqoslaş uçun Germaniyada arizani olgan taşkilot öz vakolatini ikki hafta içida aniqlaşi va arizani faqat bir marta boşqa taşkilotga yuborişi qonunda belgilangan (SGB IX, 14-§) [24].

Törtinçi muammo – ikki raqamli kontur. Elektron keys-menejment moduli

(PQ-319) va 2026-yilda yaratilgan “Raqamli mahalla” platformasi (PF-116) bir xil xonadonlar haqidagi ma’lumotlar bilan işlaydi. Axborot tizimiga integratsiya qilinadigan ma’lumotlar bazalari röyxati esa 539-son qarorning 6-ilovasi bilan 2023-yilda, ya’ni “Raqamli mahalla” platformasi yaratilişidan oldin tasdiqlangan. Holbuki, soğliq haqidagi ma’lumotlar maxfiyligi qonun bilan himoyalangan (ÖRQ-641, 19-modda; ÖRQ-1159, 26, 35-moddalar), şu bois ikki tizim örtasidagi almaşinuv tartibi va kiriş darajalari alohida belgilanişi kerak.

Beşinçi muammo – ikki tomonlama böysunuv. Ijtimoiy xodim “Inson” markazi xodimi bölgani holda “mahalla yettiligi”da rais muvofiqlaştiruvi ostida işlaydi (PF-116), baholaş mezonlarining kamida 20 foizi rais taqdimnomasiga boğliq (539-son qaror, 5-band). ÖRQ-1159ning 40-moddasi superviziyani nazarda tutadi, biroq körib çiqilgan hujjatlarda ijtimoiy xodim iş vaqtining kasbiy iş (baholaş, rejalaştiriş, muvofiqlaştiriş) va umumiy mahalla tadbirlari örtasidagi taqsimoti belgilanmagan.

Oltinçi muammo – jarayonni ölçovçi körsatkiçlar. “Mahalla yettiligi” faoliyati “Raqamli mahalla” platformasidagi KPI orqali baholanadi (PF-116). Xizmat natijasini, ya’ni şaxs hayotidagi özgarişni (mustaqil harakatlaniş, işga joylaşiş, ta’limga qaytiş) ölçovçi körsatkiçlar esa xizmat standartlari kuçga kiradigan 2027-yil 1-yanvarga qadar me’yoriy jihatdan belgilanmagan (ÖRQ-1159, 30 va 48-moddalar).

Yettinçi muammo – foydalanuvçi ovozining yetişmasligi. Nogironligi bölgan şaxslarning birlaşmalari respublika kengaşida qatnaşadi, biroq tuman darajasida xizmatlarni rejalaştiriş va baholaşda ularning iştirok mexanizmi yöq, garçi 26-modda buni foydalanuvçi huquqi sifatida belgilagan bölsa ham. Bunga hududiy notekislik qöşiladi: hisobdagilar soni viloyatlar örtasida uç barobargaça farq qiladi [4], demak, bir xil ştat me’yori turli hududlarda turliça iş yuklamasini anglatadi.

Xorijiy tajriba va qiyosiy tahlil.

Mamlakatlarni tanlaşda jamoaga asoslangan xizmatlar tizimi, nogironlik sohasidagi ijtimoiy işning rivojlanganligi, davlat va mahalliy boşqaruv hamkorligining huquqiy tartibga solinganligi, ijtimoiy xodim vakolatlarining aniqligi va baholaş mexanizmining mavjudligi mezon qilib olindi.

Buyuk Britaniya (Angliya). 2014-yilgi "Parvariş tögrisida"gi qonun (Care Act 2014) kattalarga ijtimoiy parvarişni taşkil etiş mas'uliyatini mahalliy hokimiyatlarga yuklaydi [22]. 1-bölim şaxs farovonligini barça qarorlarning umumiy tamoyili qilib belgilaydi, 6–7-bölimlar mahalliy hokimiyat va uning hamkorlari (soğliqni saqlaş, iş bilan ta'minlaş va boşqa organlar) zimmasiga hamkorlik, jumladan, aniq iş böyiça sörovga javob beriş majburiyatini yuklaydi. Ehtiyojlar 9-bölimga köra baholanadi, reja 25-bölimga köra şaxs iştirokida tuziladi, 27-bölim esa uni muntazam qayta körib çiqişni talab qiladi; rejalaştirişda iştirok etişga qiynaladiganlar uçun mustaqil himoyaçi tayinlanadi (67-bölim). Xizmat qiymati 26-bölimga köra rejada şaxsiy byudjet sifatida körsatiladi, 31-bölim esa uni bevosita tölov şaklida oliş imkonini beradi; samaradorlik ustidan nazorat rejani qayta köriş orqali amalga oşiriladi. Özbekiston uçun hamkorlik majburiyatining qonunda mustahkamlanişi, rejaning şaxs bilan birga tuzilişi va qayta köriş muddati qimmatli. Xizmatlarni asosan bozor orqali xarid qiliş (commissioning) modelini esa köçiriş erta, çunki Özbekistonda xizmat körsatuvçilar reyestri faqat 2027-yil 1-yanvardan yuritila boşlaydi (ÖRQ-1159, 22 va 48-moddalar).

Şvetsiya. Asosiy mas'uliyat 290 ta munitsipalitetda: ular ehtiyojni baholaydi, xizmatni rejalaştiradi va körsatadi, soğliqni saqlaş esa 21 ta mintaqa zimmasida [23]. "Ayrim funksional çeklovga ega şaxslarni qöllab-quvvatlaş va ularga xizmat körsatiş töğrisida"gi qonun (LSS, SFS 1993:387) şaxsiy assistent, aloqa şaxsi, kunduzgi faoliyat va moslaştirilgan turar joyga huquqni kafolatlaydi; 2024-yil 1-oktabr holatiga köra bu qonun böyiça 81 041 kişi yordam olgan. 2025-yil 1-iyuldan kuçga kirgan yangi Ijtimoiy xizmatlar töğrisidagi qonun (SFS 2025:400) profilaktika, oçiqlik va bilimga asoslangan ijtimoiy işni ustuvor qilib belgiladi [23]. Hamkorlikdagi eng qiziq vosita – muvofiqlaştirilgan yakka tartibdagi reja (samordnad individuell plan, SIP): şaxsga ham munitsipalitet, ham mintaqa xizmatlari kerak bölsa, ular uning roziligi bilan yagona reja tuzib, kim nima uçun javobgarligini körsatişi şart (SFS 2017:30, 16-bob 4-§). Xizmatlar natijalari, masalan, maxsus turar joy uçun kutiş muddati, munitsipalitetlar kesimida oçiq qiyosiy ma'lumotlar bazasida (Kolada) e'lon qilinadi [23]. SIP parallel rejalar muammosiga bevosita javob beradi, biroq LSSdagi kabi soliq hisobidan moliyalanadigan keng huquqlar töplamini qisqa muddatda joriy etiş katta qöşimça byudjet xarajatini talab qiladi.

Germaniya. Ijtimoiy kodeksning IX kitobi (SGB IX), 2016-yilgi Iştirok töğrisidagi federal qonun bilan yangilangan holda, bir neça reabilitatsiya taşuvçisi hamkorligini batafsil tartibga soladi [24]. 14-§ ga köra arizani olgan taşuvçi ikki hafta içida vakolatini aniqlaydi va zarur bölsa uni faqat bir marta boşqa taşuvçiga yuboradi, şundan keyin ariza qaytarilmaydi. 19-§ ga köra ehtiyoj bir neça taşuvçini talab qilganda yetakçi taşuvçi yagona iştirok rejasini (Teilhabeplan) tuzadi. Integratsiya yordamida 117–122-§ lardagi umumiy rejalaştiriş jarayoni (Gesamtplanverfahren) şaxs iştirokida, Xalqaro funksionallik tasnifiga (ICF) tayangan holda ehtiyojni aniqlaşni va rejani vaqti-vaqti bilan qayta körib çiqişni talab qiladi. 32-§ asosida "tengdoşdan tengdoşga" tamoyilida işlovçi mustaqil maslahatxonalar (EUTB) moliyalaştiriladi, 29-§ esa şaxsiy byudjetni nazarda tutadi. "Arizani qaytarmaslik" va javob muddati qoidasi, yetakçi taşkilot va tengdoş maslahati Özbekistonga moslaştirişga yaroqli, köp sonli suğurta taşuvçilariga asoslangan moliyaviy tuzilma esa yaroqsiz.

Yaponiya. Nogironligi bölgan şaxslarning kundalik va ijtimoiy hayotini kompleks qöllab-quvvatlaş töğrisidagi qonun (2005-yilgi 123-son, 2012-yilgi tahrirdagi nomi bilan) xizmat körsatiş mas'uliyatini munitsipalitetlarga yuklaydi [25]. Xizmatdan foydalaniş rejasini belgilangan maslahat-

qöllab-quvvatlaş taşkilotlari şaxs xohişiga tayangan holda tuzadi va belgilangan davriylikda uning bajarilişini monitoring qiladi (5-modda). 89-3-modda mahalliy hokimiyatlar zimmasiga nogironligi bölgan şaxslar va ularning oilalari, tibbiyot, ta'lim va bandlik sohasi vakillaridan iborat hududiy kengaş (kyōgikai) tuzişga intiliş majburiyatini yuklaydi; kengaş idoralararo tarmoq quradi, murakkab holatlarni muhokama qiladi va mahalliy resurslarni rivojlantiradi [25]. Bundan taşqari, 1948-yildan qonun asosida işlovçi jamoat köngillilari – minsei-iin öz hududida muhtoj xonadonlarni erta aniqlab, rasmiy xizmatlar bilan boğlaydi. Bu "aniqlaş va boğlaş" funksiyasi mahallaning ÖRQ-1159 16-moddasidagi vazifalariga juda yaqin. Farqi şundaki, Yaponiyada kengaş nogironlikka ixtisoslaşgan va uning tarkibida foydalanuvçilar qonunda nomma-nom körsatilgan, mahalla esa köp funksiyali institut.

Qiyosiy tahlil natijalari 1-jadvalda umumlaştirilgan.

1-jadval.

Nogironligi bölgan şaxslarga ijtimoiy yordamni taşkil etişning xorijiy tajribasi: qiyosiy tahlil

Mamlakat	Xizmatlarni taşkil etiş tizimi	Davlat va mahalliy hamkorlik	Ijtimoiy xodimning roli	Özbekiston uçun ahamiyati
Buyuk Britaniya (Angliya)	Mahalliy hokimiyatlar Care Act 2014 asosida ehtiyojni baholaydi (9-bölim) va şaxs bilan birga parvariş rejasini tuzadi (25-bölim)	Hamkorlik majburiyati qonunda belgilangan (6–7-bölimlar); aniq iş böyiça sörovga javob beriş burçi	Murakkab holatlarda baholaş, rejalaştiriş va xavfsizlikni ta'minlaş; rejani qayta körib çiqiş (27-bölim)	Mos: hamkorlik majburiyati, şaxs bilan birga reja, qayta köriş muddati. Mos emas: xizmatlarni bozor orqali xarid qiliş modeli
Şvetsiya	290 munitsipalitet; LSS (1993:387) böyiça huquqqa asoslangan çora-tadbirlar; 2025-yil 1-iyuldan yangi Ijtimoiy xizmatlar qonuni	Munitsipalitet va mintaqaning şaxs roziligi bilan tuziladigan muvofiqlaştirilgan yakka tartibdagi rejasi (SIP)	Munitsipal ijtimoiy xodim ehtiyojni baholaydi, xizmatni rejalaştiradi va muvofiqlaştiradi	Mos: parallel rejalarni yagona rejaga birlaştiriş. Mos emas: soliq hisobidan moliyalanadigan keng huquqlar töplamini qisqa muddatda joriy etiş
Germaniya	SGB IX (2016-yilgi tahrir): bir neça reabilitatsiya taşuvçisi; ICFga asoslangan umumiy rejalaştiriş (117–122-§)	14-§: ikki haftalik muddat va arizani faqat bir marta yönaltiriş; 19-§: yetakçi taşuvçining iştirok rejasi	Umumiy rejalaştiriş jarayonini olib boriş; mustaqil tengdoş maslahati (32-§)	Mos: "arizani qaytarmaslik", yetakçi taşkilot, tengdoş maslahati. Mos emas: suğurta taşuvçilariga asoslangan moliyaviy tuzilma

Mamlakat	Xizmatlarni taşkil etiş tizimi	Davlat va mahalliy hamkorlik	Ijtimoiy xodimning roli	Özbekiston uçun ahamiyati
Yaponiya	Munitsipalitetlar; maslahat-qöllab-quvvatlaş taşkilotlari tuzadigan xizmatdan foydalaniş rejasi (2005-yilgi 123-son qonun)	89-3-modda: foydalanuvçilar va sohalar vakillaridan iborat hududiy kengaş; minsei-iin jamoat köngillilari	Maslahat mutaxassisi rejani şaxs xohişi asosida tuzadi va tarmoqni muvofiqlaştiradi	Mos: mahalla funksiyasiga yaqin “aniqlaş va boğlaş”, hududiy kengaş. Mos emas: erta aniqlaşda faqat köngillilarga tayaniş

Tört mamlakatning barçasida ikki umumiy element bor: bir neçta xizmat kerak bölgan şaxs uçun yagona kelişilgan reja va uning “egasi” bölgan yetakçi taşkilot yoki mutaxassis hamda şaxsning rejalaştiriş va baholaşdagi qonuniy iştiroki. Moliyalaştiriş usullari esa milliy kontekstga qattiq boğliq. Şu sababli biz xorijiy institutlarning özini emas, ularning taşkiliy mantiqini – “kim boşlaydi, kim keliştiradi, kim javob beradi” degan savollarga javobini Özbekiston qonunçiligiga moslaştirişni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Natijalar: Mualliflik hamkorlik modeli.

Tahlil natijalariga tayanib, “muvofiqlaştirilgan ijtimoiy yordam” deb nomlagan mualliflik modelimizni taklif etamiz. Uning markaziy ğoyasi: bitta şaxs – bitta kelişilgan reja – bitta yetakçi muvofiqlaştiruvçi. Model yangi tuzilma yaratmaydi, balki mavjud subyekt va vakolatlarni yetti bosqiçli yagona jarayonga boğlaydi (1-rasm).

1-rasm.

“Muvofiqlaştirilgan ijtimoiy yordam” mualliflik modelining blok-sxemasi



Manba: muallif işlanmasi.

1-bosqiç. Ehtiyojni aniqlaş. Ehtiyoj şaxs (qonuniy vakili) arizasi, “mahalla yettiligi”ning xonadonma-xonadon örganişi, tibbiyot, ta’lim va bandlik muassasalari xabari hamda reyestr ma’lumotlari orqali aniqlanadi. Mahallaning vazifasi qaror çiqariş emas, erta aniqlaş va “Inson” markaziga yönaltirişdir (ÖRQ-1159, 16, 23-moddalar), şaxs roziligi bilan kiritilgan dastlabki ma’lumotdan boşlab iş raqamlanadi va nazoratga olinadi.

2-bosqiç. Ehtiyoj va imkoniyatlarni baholaş. Ijtimoiy xodim şaxs bilan birga yagona vosita asosida kompleks baholaş ötkazadi: yetişmovçiliklar bilan birga kuçli tomonlar, oilaviy va jamoaviy resurslar va, eng muhimi, şaxsning öz maqsadlari qayd etiladi. Natijada ehtiyoj darajasi belgilanadi: birlamçi daraja uçun Leutz ta’biriça “boğlaş”, ixtisoslaşgan daraja uçun “muvofiqlaştiriş”, yuqori ixtisoslaşgan daraja uçun köp tarmoqli guruh iştirokida “töliq integratsiya” qöllanadi [14; 3].

3-bosqiç. Mas’ul taşkilotni belgilaş. Har bir iş böyiça yetakçi muvofiqlaştiruvçi (odatda “Inson” markazining ijtimoiy xodimi) va har bir ehtiyoj böyiça ijroçi taşkilot aniqlanadi. “Birinçi murojaat tamoyili” amal qiladi: yöllanmani olgan taşkilot ikki iş kunida uni qabul qiladi yoki faqat bir marta vakolatli taşkilotga yönaltiradi, iş fuqaroga qaytarilmaydi.

4-bosqiç. Vazifalarni taqsimlaş. Barça ehtiyojlar ijroçi, muddat va kutilayotgan natija körsatilgan bitta kelişilgan yakka tartibdagi rejaga birlaştiriladi; uni şaxs, ijtimoiy xodim va ijroçi taşkilotlar tasdiqlaydi. Yakka tartibdagi reabilitatsiya dasturi alohida hujjat bölib qoladi, ammo uning tadbirlari rejaning tarkibiy qismiga aylanadi.

5-bosqiç. Xizmatlarni taşkil etiş. Sohaviy davlat organlari, hokimlik va akkreditatsiyalangan xizmat körsatuvçilar öz vakolati doirasida xizmat körsatadi; mahalla norasmiy resurslarni (qöşnilar, köngillilar, homiylar) safarbar qiladi, nodavlat taşkilotlar ijtimoiy buyurtma asosida işlaydi.

6-bosqiç. Monitoring. Reja bajarilişi elektron keys-menejment modulida kuzatiladi: muddati ötgan çora böyiça avtomatik signal beriladi, masala hal bölmasa, u “Inson” markazi rahbariyati, söng hokimlikdagi muvofiqlaştiruvçi darajasiga kötariladi. Mahalla xizmat fuqaroga yetib borganini tasdiqlaydi, Ijtimoiy inspeksiya tanlab tekşiradi.

7-bosqiç. Natijani baholaş va rejani qayta köriş. Reja kamida olti oyda bir marta yoki hayotiy vaziyat jiddiy özgarganda maqsadlarga erişilganlik va şaxs qoniqişi asosida qayta köriladi; natijaga köra iş yopiladi, reja tuzatiladi yoki ehtiyoj darajasi özgartiriladi.

Model beşta tamoyilga tayanadi: huquqlarga asoslanganlik (xizmat imtiyoz emas, huquqni amalga oşiriş vositasi), rozilik (ÖRQ-1159, 25-modda), mustaqil tanlov va qöllab-quvvatlangan qaror qabul qiliş [11], maxfiylik (ÖRQ-641, 19-modda; ÖRQ-1159, 26, 35-moddalar) va kamsitmaslik (ÖRQ-641, 6, 18-moddalar). Keçiktirib bölmaydigan holatlardan taşqari, şaxs reja yoki uning bir qismidan voz keçişga haqli va bu ijtimoiy xodim faoliyatiga salbiy baho sifatida hisoblanmasligi kerak.

2-jadvalda vazifalar iştirokçilarning huquqiy maqomiga mos taqsimlangan; amaldagi asos va muallif taklifi aralaşib ketmasligi uçun alohida ustunlarda berilgan.

2-jadval.

Model iştirokçilarining vazifalari: amaldagi huquqiy asos va muallif taklifi

Iştirokçi	Amaldagi huquqiy asos	Modeldagi vazifasi (bosqiçlar)	Yangi normativ tartib zarurligi (muallif taklifi)
Nogironligi bölgan şaxs (qonuniy vakili)	ÖRQ-641, 4–5-moddalar; ÖRQ-1159, 25–26-moddalar	Öz maqsadlarini belgilaş, rejani tasdiqlaş yoki rad etiş, natijani baholaş (2, 4, 7)	Zarur emas; qöllab-quvvatlangan qaror qabul qiliş tartibini xizmat standartida aniqlaştiriş
Mahalla (fuqarolarning özini özi boşqariş organi, “mahalla yettiligi”)	ÖRQ-1159, 16, 23–24-moddalar; PF-116	Erta aniqlaş va “Inson” markaziga yönaltiriş, norasmiy resurslarni safarbar qiliş, jamoatçilik nazorati (1, 5, 6)	Zarur emas; yönaltiriş şakli, muddati va mahalla vakolati çegarasi reglamentda yoziladi
Ijtimoiy xodim (“Inson” markazi)	ÖRQ-1159, 34–37, 40-moddalar; PF-82; 539-son qaror, 7-band; 461-son qaror	Baholaş, yetakçi muvofiqlaştiruvçi, monitoring, rejani qayta körib çiqiş (2–4, 6–7)	Qisman: “yetakçi muvofiqlaştiruvçi” maqomi va iş yuklamasi me’yori reglamentda belgilanadi
Sohaviy davlat organlari (soğliqni saqlaş, ta’lim, bandlik va boşqalar)	ÖRQ-641, 13-modda; ÖRQ-1159, 14-modda; 539-son qaror, 7-band	Kelişilgan rejadagi xizmatlarni muddatida körsatiş, ma’lumot almaşiş (3–5)	Ha: javob muddati va “birinçi murojaat tamoyili” reglamentda

Iştirokçi	Amaldagi huquqiy asos	Modeldagi vazifasi (bosqiçlar)	Yangi normativ tartib zarurligi (muallif taklifi)
Mahalliy ijro etuvçi hokimiyat organlari (hokimliklar)	ÖRQ-641, 14-modda; ÖRQ-1159, 15-modda	Hududiy dasturlar, vakolat böyiça nizolarni hal etiş, muddati ötgan masalalarni körib çiqiş (5–6)	Ha: masalani yuqori darajaga kötariş (eskalatsiya) tartibi reglamentda
Ijtimoiy himoya milliy agentligi va Ijtimoiy inspeksiya	ÖRQ-1159, 13, 30, 32–33-moddalar	Baholaş vositasi, standartlar, axborot tizimi va nazorat (barça bosqiçlar uçun asos)	Ha: yagona baholaş vositasi; natija körsatkiçlarini 2027-yildan standartlarga kiritiş
NNT va nogironligi bölgan şaxslarning jamoat birlaşmalari	ÖRQ-641, 15–16-moddalar; ÖRQ-1159, 17-modda	Xizmat körsatiş, tengdoş maslahati, rejalaştiriş va baholaşda iştirok (5, 7)	Zarur emas; ijtimoiy buyurtma, subsidiya va grantlar asosida jalb etiladi

Modelning mavjud tartibdan farqi uçta: xizmatlar yiğindisi örniga natija uçun javob beradigan aniq şaxs paydo böladi; köp tarmoqli guruh resursi faqat murakkab holatlarga sarflanadi; nogironligi bölgan şaxs har bir bosqiçda qaror iştirokçisi böladi. Modelning asosiy qismi amaldagi vakolatlar doirasida joriy etiladi, yangi normativ tartib faqat uç element uçun zarur: hamkorlik reglamenti (javob muddatlari va yetakçi taşkilot), yagona baholaş vositasi va axborot tizimlari integratsiyasi tartibi.

Törtta ilmiy-amaliy taklif.

Aniqlangan yetti muammodan eng ustuvor törttasiga, ya'ni mas'uliyatning aniq taqsimlanmaganligi, baholaş va rejalarning parallelligi, natija muddatining yöqligi hamda ikki raqamli konturga javob beruvçi takliflar quyida keltiriladi. Ular modelning 1–6-bosqiçlarini amalga oşiriş vositasi bölib, amaldagi vakolatlar doirasida yoki Vazirlar Mahkamasining bitta qarori bilan joriy etilişi mumkin. Ijtimoiy xodimlar salohiyati, xizmatlar sifatini natija böyiça baholaş va foydalanuvçilar iştirokiga oid masalalar esa 461-son qaror va 2027-yildan kuçga kiradigan xizmat standartlari doirasida hal etiladigan keyingi yönalişlar sifatida xulosada qayd etiladi.

Sinov loyihasining umumiy şarti. Takliflarni bitta sinov loyihasi doirasida uç turdagi tumanda sinaş maqsadga muvofiq: hisobdagi nogironligi bölgan şaxslar soni eng köp viloyatlardan biridagi (Qaşqadaryo yoki Samarqand) qişloq tumani, Toşkent şahridagi tumanlardan biri va markazdan uzoq, boriş qiyin bölgan tuman. Tanlaş mezonlari: "Inson" markazida ijtimoiy xodim ştatlarining töliq bandligi, "Raqamli mahalla" platformasining işga tuşirilgani, faol nogironlar jamoat birlaşmasining mavjudligi va hokimlikning tayyorligi. Sinov muddati – olti oy (2027-yil 1-yanvardan 30-iyungaça): birinçi oy bazaviy körsatkiçlarni ölçaş va xodimlarni tayyorlaş, 2–5-oylar takliflarni joriy etiş, oltinçi oy natijalarni baholaş va hisobot tayyorlaş. Olti oy modelning 7-bosqiçida belgilangan rejani qayta köriş davriga teng, şu sababli bu muddat kamida bitta töliq xizmat siklini – ehtiyojni aniqlaşdan rejani

qayta körişgaça – kuzatiş imkonini beradi. Sinov davri ÖRQ-1159ning 22 va 30-moddalari kuçga kirişi hamda 461-son qarorga köra Toşkent şahrida sertifikatlaş boşlanişiga töğri keladi. Barça KPI maqsadli qiymatlari amaldagi statistika emas, bazaviy ölçovdan keyin aniqlaştiriladigan tavsiya etilgan qiymatlardir.

1-taklif. Vazifalar taqsimotini aniqlaştiruvçi vakolatlar matritsasi.

Muammo. ÖRQ-1159 (13–17-moddalar) subyektlarning vakolatlarini sanaydi, lekin aniq iş böyiça kim boşlaşi, kim keliştirişi va natija uçun kim javob berişi, vakolat nizosi qanday hal qilinişi belgilanmagan; 10-moddadagi reglamentni qabul qiliş muddati esa 47-moddada körsatilmagan.

Taklifning mazmuni. ÖRQ-1159 10-moddasidagi hamkorlik reglamentiga nogironligi bölgan şaxslarga oid bölim va vakolatlar matritsasini kiritiş. Har bir tipik ehtiyoj (reabilitatsiya, texnik vosita, uy-joyni moslaştiriş, ta'lim, kasbga tayyorlaş va bandlik, psixologik va huquqiy yordam) uçun "yetakçi muvofiqlaştiruvçi", "ijroçi", "maslahatçi" va "xabardor qilinuvçi" subyekt körsatiladi. Vakolat nizosini beş iş kunida tuman hokimligidagi muvofiqlaştiruvçi hal qiladi, bu davrda xizmat töxtatilmaydi.

Mas'ul taşkilot. Özbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (loyiha); Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (tasdiqlaş).

Huquqiy mexanizm. Yangi hujjat zarur: ÖRQ-1159 10-moddasiga asosan Vazirlar Mahkamasi qarori. Sinov davrida matritsa 539-son qaror 5-ilovasidagi hamkorlik yönalişlarini aniqlaştiriş orqali qöllanadi.

Amalga oşiriş tartibi. Birinçi oyda Agentlik işçi guruhi matritsa loyihasini tayyorlaydi va uni vazirliklar, Özbekiston mahallalari uyuşmasi hamda nogironlar birlaşmalari bilan kelişadi; 2–5-oylarda matritsa sinov tumanlaridagi har bir yangi işga qöllanadi, vakolat nizolari alohida jurnalda qayd etiladi; oltinçi oyda natijalar umumlaştirilib, reglament loyihasiga kiritiş uçun Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi.

Xorijiy asos. Care Act 2014ning 6–7-bölimlari mahalliy hokimiyat va uning hamkorlariga umumiy hamkorlik majburiyatini, aniq iş böyiça esa sörovga javob beriş burçini yuklaydi; SGB IX ning 19-§ i bir neça taşuvçi iştirok etganda yetakçi taşuvçiga yagona iştirok rejasini tuziş majburiyatini beradi [22; 24].

Sinov hududi va muddati. Umumiy şartdagi uç tuman, olti oy (2027-yil yanvar–iyun).

KPI. Uç iş kunida yetakçi muvofiqlaştiruvçi tayinlangan işlar uluşi (maqsad – kamida 90 foiz); beş iş kunida hal etilgan vakolat nizolari uluşi; bir martadan ortiq qayta yönaltirilgan işlar soni (bazaviy darajadan ikki barobar kamayişi).

2-taklif. Ijtimoiy ehtiyojlarni baholaşning yagona vositasi.

Muammo. Funksional baholaş, ijtimoiy xizmat rejasi va mahalladagi örganiş turli şakl va mezonlarga tayanadi; şaxsning öz maqsadlari hujjatlarda köpinça aks etmaydi.

Taklifning mazmuni. ICFning faoliyat va iştirok sohalariga tayangan, ön yönalişli yagona vosita: soğliq va reabilitatsiya, harakatlaniş va texnik vositalar, uy-joy qulayligi, ta'lim, bandlik, daromad, psixologik holat, huquqiy holat, oila va parvariş qiluvçilar, jamoaviy iştirok. Şaxsning öz sözlari bilan yozilgan maqsadlari vositaning majburiy qismi böladi, natijada ehtiyoj darajasi belgilanadi.

Mas’ul taşkilot. Ijtimoiy himoya milliy agentligi; Özbekiston Respublikasi Soğliqni saqlaş vazirligi (funksional baholaş bilan muvofiqlaştirişda).

Huquqiy mexanizm. Amaldagi vakolatlar doirasida: Agentlikning ÖRQ-1159 13-moddasidagi standart belgilaş vakolati asosidagi idoraviy hujjat; 2027-yildan 30-moddaga köra xizmat standartiga kiritiladi va PQ-319 dagi funksional baholaşni takomillaştiriş vazifasi bilan uyğunlaştiriladi.

Amalga oşiriş tartibi. Birinçi oyda vosita loyihasi tayyorlanib, baholovçilar öqitiladi; 2–5-oylarda u sinov tumanlarida 100–150 ta işda qöllanadi, işlarning bir qismi ikki mustaqil baholovçi tomonidan baholanib, natijalar muvofiqligi tekşiriladi; oltinçi oyda vosita tuzatilib, elektron keys-menejment moduliga kiritiş uçun tavsiya etiladi.

Xorijiy asos. Germaniyada integratsiya yordamida ehtiyoj ICF bilan uyğunlaştirilgan vositalar orqali aniqlanadi (SGB IX, 118-§), Angliyada ehtiyoj qonunda belgilangan milliy muvofiqlik mezonlari asosida baholanadi (Care Act 2014, 9 va 13-bölimlar) [24; 22]; Konvensiyaning 26-moddasi esa reabilitatsiyani individual ehtiyoj va imkoniyatlarni köp tarmoqli baholaşga asoslaşni talab qiladi [10].

Sinov hududi va muddati. Uç tuman, olti oy: vositani tayyorlaş birinçi oyda, qöllaş va tekşiriş 2–6-oylarda.

KPI. Ön iş kunida yakunlangan baholaşlar uluşi (maqsad – kamida 85 foiz); şaxsning maqsadlari qayd etilgan va u imzolagan rejalar uluşi (maqsad – 100 foiz); ikki baholovçi natijalarining muvofiqlik darajasi.

3-taklif. “Birinçi murojaat tamoyili”ga asoslangan elektron yöllanma.

Muammo. Sörovni körib çiqiş muddati bor, ammo xizmat boşlaniş muddati, qayta yönaltirişlar soni va keçikkan masalani yuqoriga kötariş tartibi yöq.

Taklifning mazmuni. Keys-menejment modulida majburiy elektron yöllanma: uni olgan taşkilot ikki iş kunida qabul qiladi yoki faqat bir marta, asoslab, vakolatli taşkilotga yönaltiradi; xizmat rejadagi muddatda boşlanadi; muddat ötsa, masala avtomatik ravişda “Inson” markazi rahbariyatiga, yana beş iş kunidan söng hokimlikdagi muvofiqlaştiruvçiga kötariladi.

Mas’ul taşkilot. Ijtimoiy himoya milliy agentligi; Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

Huquqiy mexanizm. 539-son qarorning 7-bandiga özgartiriş (ön kunlik muddat örniga ikki bosqiçli muddat), keyinçalik tartibni 10-moddadagi reglamentga kiritiş.

Amalga oşiriş tartibi. Birinçi oyda modulda yöllanma şakli va muddat hisoblagiçi yaratiladi, ijroçi taşkilotlarda mas’ul xodim belgilanadi; 2–6-oylarda sinov tumanlaridagi barça yangi işlar böyiça yöllanmalar faqat elektron şaklda yuboriladi, keçikişlar esa har oy hokimlikdagi muvofiqlaştiruvçi yiğilişda tahlil qilinadi.

Xorijiy asos. SGB IX ning 14-§ idagi ikki haftalik muddat va arizani faqat bir marta yönaltiriş qoidasi, şuningdek, Care Act 2014ning 7-bölimidagi aniq iş böyiça hamkorlik söroviga javob beriş majburiyati [24; 22].

Sinov hududi va muddati. Uç tuman, olti oy (2027-yil yanvar–iyun).

KPI. Yöllanmani qabul qilişning median muddati (maqsad – ikki iş kunidan oşmasligi); rejadagi muddatda boşlangan xizmatlar uluşi (maqsad – kamida 80 foiz); bir masala böyiça takroriy murojaatlar soni (kamida 30 foizga kamayişi).

4-taklif. Rozilikka asoslangan elektron axborot almaşinuvi.

Muammo. Keys-menejment moduli va “Raqamli mahalla” parallel rivojlanmoqda; fuqarodan bir xil hujjatlar qayta söraladi, soğliq haqidagi ma’lumotlar ortiqça doiraga oşkor bölişi mumkin.

Taklifning mazmuni. Ikki tizim örtasida minimal ma’lumotlar töplamini belgilaş va kirişni uç darajaga ajratiş: mahalla faqat iş mavjudligi, holati va öz vazifasini, ijroçi taşkilot öz xizmatiga zarur ma’lumotni, tibbiy ma’lumotni esa faqat yetakçi ijtimoiy xodim va şaxs roziligi bilan tegişli mutaxassis köradi. Har bir kiriş jurnalga yoziladi, şaxs öz ma’lumotlaridan kim foydalanganini köra oladi.

Mas’ul taşkilot. Ijtimoiy himoya milliy agentligi; Özbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi; Özbekiston mahallalari uyuşmasi.

Huquqiy mexanizm. Amaldagi vakolatlar doirasida texnik integratsiya; 539-son qarorning axborot almaşinuviga oid 6-ilovasiga özgartiriş; kiriş darajalari ÖRQ-641 19-moddasi va ÖRQ-1159 26, 35-moddalariga muvofiq Agentlik hujjati bilan tasdiqlanadi.

Amalga oşiriş tartibi. Birinçi oyda ma’lumotlar oqimi xaritasi tuzilib, minimal töplam va kiriş darajalari kelişiladi; ikkinçi oyda sinov tumanlarida ikki tizim örtasidagi integratsiya ulanadi; 3–5-oylarda almaşinuv amalda kuzatiladi; oltinçi oyda axborot xavfsizligi böyiça mustaqil audit ötkaziladi.

Xorijiy asos. Konvensiyaning 22 va 31-moddalari [10]; Şvetsiyadagi SIP faqat şaxs rozi bölganda tuzilişi (SFS 2017:30, 16-bob 4-§).

Sinov hududi va muddati. Uç tuman, olti oy: integratsiya birinçi ikki oyda, amaliy kuzatuv va audit 3–6-oylarda.

KPI. Elektron olingan hujjatlarning fuqarodan talab qilinganlariga nisbatan uluşi (maqsad – kamida 70 foiz); qayta söralgan hujjatlar soni; ruxsatsiz kiriş holatlari (maqsad – nol).

Olingan natijalarni muhokama qiliş.

Model adabiyotdagi qaraşlar bilan soliştirilsa, bir neça jihat közga taşlanadi. U Lawson va Beckettning “töldiruvçilik” tezisiga mos: tösiqlarni aniqlaş ijtimoiy model mantiğiga, ularni bartaraf etiş majburiyatini aniq subyektga yuklaş esa huquqlarga asoslangan model mantiğiga tayanadi [9]. Kelişilgan reja barça iştirokçilar uçun umumiy maqsadni hujjat şaklida mustahkamlab, Bronsteyn ta’riflagan “maqsadlarga jamoaviy egalik”ni amalda ta’minlaydi [13]. Integratsiya darajasini ehtiyojga mos tanlaş qoidasi esa Leutz ogohlantirgan ortiqça integratsiyadan va köp tarmoqli guruhlarning haddan ortiq yuklanişidan saqlaydi [14].

Modelning xatarlarini ham oçiq tan oliş lozim. **Birinçisi** – ijtimoiy xodimga haddan ortiq mas’uliyat yuklanişi: agar yetakçi muvofiqlaştiruvçi sohaviy idoralar işini ham bajarişga majbur bölsa, model teskari natija beradi, şu bois 1 va 3-takliflar birga joriy etilişi kerak: matritsa ijroçini, muddatli yöllanma esa uning javobgarligini belgilaydi. **Ikkinçisi** – raqamli integratsiya maxfiylikni zaiflaştirişi; bu 4-taklifdagi kiriş darajalari va mustaqil audit bilan kamaytiriladi. **Uçinçisi** – mahallaning “nazorat” funksiyasi şaxs va oilada bosim hissini uyğotişi; model mahallaga qaror çiqariş emas, aniqlaş, boğlaş va xizmat yetib borganini tasdiqlaş vazifasini beradi va bu çegara reglamentda aniq yozilişi şart. Olti oylik sinovda bazaviy va yakuniy körsatkiçlarni soliştiriş takliflar samaradorligini aniq raqamlarda körsatadi. Normativ tahlil esa şuni körsatadiki, aniqlangan yetti muammoning har biri mas’uliyat yoki axborot oqimining uzilişi bilan boğliq va ularning törttasiga takliflar bevosita javob beradi.

Xulosa.

Tahlil şuni körsatdiki, Özbekistonda nogironligi bölgan şaxslarga ijtimoiy yordam tizimi sönggi uç yilda institutsional jihatdan sezilarli yangilandi: Ijtimoiy himoya milliy agentligi, “Inson” markazlari, mahalladagi ijtimoiy xodim instituti va 2026-yilgi “**Ijtimoiy iş töğrisida**”gi Qonun hamkorlik uçun zarur subyekt va vakolatlarni şakllantirdi. Biroq ularni aniq fuqaro işi darajasida yagona jarayonga boğlovçi mexanizm hali töliq yaratilmagan. Maqola maqsadiga muvofiq hamkorlikning taşkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilindi, muammolar aniqlandi va ularni bartaraf etiş yöllari asoslandi.

Huquqiy tahlilning asosiy xulosasi: iştirokçilarning huquqiy maqomi turliça, şu sababli ijtimoiy xodimning muvofiqlaştiruvçi roli uning şaxsiy vakolatiga emas, kelişilgan rejaning huquqiy majburiyligiga tayanişi kerak. Bu mexanizmni qonun doirasida joriy etişning asosiy vositalari ÖRQ-1159ning 10-moddasidagi hamkorlik reglamenti va 30-moddasidagi xizmat standartlaridir.

Aniqlangan yetti muammo – parallel rejalar, quyi darajada muvofiqlaştirişning yöqligi, natija muddatining belgilanmaganligi, ikki raqamli kontur, ijtimoiy xodimning ikki tomonlama böysunuvi, jarayonga yönaltirilgan körsatkiçlar va foydalanuvçi ovozining yetişmasligi – bitta umumiy sababga ega: natija uçun mas’uliyat aniq şaxs yoki taşkilotga biriktirilmagan.

Mualliflik “**muvofiqlaştirilgan ijtimoiy yordam**” modeli şu sababni bartaraf etişga qaratilgan. Uning ustunliklari – yetakçi muvofiqlaştiruvçi instituti, parallel rejalarni yagona kelişilgan rejaga birlaştiriş, integratsiya darajasini ehtiyojga moslaş va nogironligi bölgan şaxsni har bir bosqiçda qaror iştirokçisiga aylantiriş. Modelning asosiy qismi amaldagi vakolatlar doirasida joriy etilişi mumkin, yangi normativ tartib faqat reglament, yagona baholaş vositasi va axborot tizimlari integratsiyasi uçun kerak.

Törtta ustuvor taklif mantiqiy zanjir hosil qiladi: vakolatlar matritsasi

“kim javob beradi”, yagona baholaş vositasi “nima kerak”, muddatli elektron yöllanma “qaçon”, rozilikka asoslangan axborot almaşinuvi esa “qanday ma’lumot asosida” degan savollarga javob beradi. Ularni uç turdagi tumanda olti oylik sinov loyihasida joriy etib, natijalarni bazaviy körsatkiçlar bilan soliştiriş taklif etiladi. Ijtimoiy xodimlarning kasbiy salohiyati va superviziyasi, xizmatlar sifatini natija böyiça baholaş hamda nogironligi bölgan şaxslarning tuman darajasida xizmatlarni rejalaştirişdagi iştiroki esa 461-son qaror va 2027-yil 1-yanvardan kuçga kiradigan xizmat standartlari doirasida hal etilişi lozim bölgan keyingi yönalişlardir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam körsatiş hamda uning samarali nazorat tizimini yölga qöyiş böyiça kompleks çora-tadbirlar töğrisida”gi Farmoni. 2023-yil 1-iyun, PF-82-son // Qonunçilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-6480342 (murojaat sanasi: 04.11.2026).
2. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar körsatiş tizimini yanada takomillaştiriş çora-tadbirlari töğrisida”gi qarori. 2023-yil 28-sentabr, PQ-319-son // Qonunçilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/ru/docs/6624639 (murojaat sanasi: 04.11.2026).
3. Özbekiston Respublikasining “Ijtimoiy iş töğrisida”gi Qonuni. 2026-yil 23-iyul,

4. ÖRQ-1159-son // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/en/acts/-8346774 (murojaat sanasi: 04.11.2026).
5. Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasi. Özbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya: press-reliz. – Toşkent, 2026-yil 30-iyun. – URL: https://stat.uz/img/news/izhtimoij-khimoya-lotin_p50370.pdf (murojaat sanasi: 04.11.2026).
6. Latipova N.M., Abduxalilov A.A., Qayumov Q.N. Nogironligi bölgan şaxslar bilan ijtimoiy iş: öquv qöllanma. – Toşkent: Dimal, 2025. – 229 b.
7. Abduvaliyeva M. Formation of inclusive policy toward persons with disabilities in Uzbekistan // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2026. – Vol. 6, № 4. – P. 164–171. – DOI: 10.5281/zenodo.20019955.
8. Jaloldinov S. Formation and development of the social protection system for persons with disabilities in Uzbekistan: historical analysis // Models and Methods in Modern Science. – 2026. – Vol. 5, № 10. – P. 41–55. – DOI: 10.5281/zenodo.20823038.
9. Oliver M. The social model of disability: thirty years on // Disability & Society. – 2013. – Vol. 28, № 7. – P. 1024–1026. – DOI: 10.1080/09687599.2013.818773.
10. Lawson A., Beckett A.E. The social and human rights models of disability: towards a complementarity thesis // The International Journal of Human Rights. – 2021. – Vol. 25, № 2. – P. 348–379. – DOI: 10.1080/13642987.2020.1783533.
11. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities: adopted by General Assembly resolution A/RES/61/106 of 13 December 2006. – New York: United Nations, 2006.
12. Committee on the Rights of Persons with Disabilities. General comment No. 5 (2017) on living independently and being included in the community. – CRPD/C/GC/5. – Geneva: United Nations, 2017.
13. Özbekiston Respublikasining "Nogironlar huquqlari töğrisidagi Konvensiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qiliş haqida"gi Qonuni. 2021-yil 7-iyun, ÖRQ-695-son // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/5447413 (murojaat sanasi: 04.11.2026).
14. Bronstein L.R. A model for interdisciplinary collaboration // Social Work. – 2003. –
15. Vol. 48, № 3. – P. 297–306. – DOI: 10.1093/sw/48.3.297.
16. Leutz W.N. Five laws for integrating medical and social services: lessons from the United States and the United Kingdom // The Milbank Quarterly. – 1999. – Vol. 77, № 1. – P. 77–110. – DOI: 10.1111/1468-0009.00125.
17. Komilov D. The role of the mahalla institution in society in the context of modernizing Uzbekistan // Jamiyat va innovatsiyalar – Society and Innovations. – 2026. – Vol. 7, Special Issue 01. – P. 74–81. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol7-iss1/S-pp74-81.
18. Xakimov O.M., Töraqulova A. Nogironligi bor şaxslarga ijtimoiy xizmat körsatişning öziga xos jihatlari // Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – Vol. 2, № 7. – B. 53–56. – DOI: 10.5281/zenodo.13959002.
19. World Bank. Uzbekistan to Improve Access and Quality of Social Services for Vulnerable People with World Bank Support: press release, May 24, 2024. – Washington, DC: World Bank, 2024. – URL: https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2024/05/24/uzbekistan-to-improve-

access-and-quality-of-social-services-for-vulnerable-people-with-world-bank-support (murojaat sanasi: 04.11.2026).
20. Özbekiston Respublikasining “Nogironligi bölgan şaxslarning huquqlari töğrisida”gi Qonuni. 2020-yil 15-oktabr, ÖRQ-641-son // Qonunçilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-5049511 (murojaat sanasi: 04.11.2026).
21. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla boşqaruvini samarali taşkil etişga oid qöşimça çora-tadbirlar töğrisida”gi Farmoni. 2026-yil 24-iyun, PF-116-son // Qonunçilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-8286512 (murojaat sanasi: 04.11.2026).
22. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholining ijtimoiy himoya oliş huquqlarini ta’minlaş hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini körsatişga doir qöşimça çora-tadbirlar töğrisida”gi qarori. 2023-yil 14-oktabr, 539-son // Qonunçilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/6636282 (murojaat sanasi: 04.11.2026).
23. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ijtimoiy himoya sohasida yuqori malakali mutaxassislar korpusini şakllantiriş, şuningdek, ularning kasbiy faoliyatini takomillaştiriş töğrisida”gi qarori. 2026-yil 4-sentabr, 461-son // Qonunçilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://www.lex.uz/uz/docs/-8452383 (murojaat sanasi: 04.11.2026).
24. Care Act 2014 (c. 23). – London: The Stationery Office, 2014. –
25. URL: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2014/23/contents (murojaat sanasi: 04.11.2026).
26. European Social Network. Social Services Index 2025: Sweden. – Brussels: ESN, 2025. – URL: https://www.esn-eu.org/social-services-index/2025/sweden (murojaat sanasi: 04.11.2026).
27. Sozialgesetzbuch Neuntes Buch (SGB IX) – Rehabilitation und Teilhabe von Menschen mit Behinderungen: Artikel 1 des Bundesteilhabegesetzes vom 23. Dezember 2016 (BGBl. I S. 3234), in der geltenden Fassung.
28. Act on Comprehensive Support for the Daily and Social Life of Persons with Disabilities (Act No. 123 of 2005, as amended) [Shōgaisha no nichijō seikatsu oyobi shakai seikatsu o sōgōteki ni shien suru tame no hōritsu]. – Tokyo, 2005.